

**DETERMINATIVE COMPOUNDS IN THE PERSIAN LANGUAGE  
(BASED ON THE MODELS “بلند+NOUN” AND “کوتاه+NOUN”)**

**Begaliyeva Khadicha Dilmurod’s daughter**

*1st year master’s student, Linguistics (Persian),*

*Tashkent State University of Oriental Studies*

*g-mail: [begaliyevahadica@gmail.com](mailto:begaliyevahadica@gmail.com)*

*Scientific advisor: PhD, Associate Professor Nodir Nuriddinov*

**Abstract:** This article aims to give information about attributive compounds in Persian and dedicated to the study of determinative compound words formed based on the models “بلند+noun” and “کوتاه+noun”

**Key words:** determinative compounds, adjective, noun, new attributive words

**FORS TILIDA DETERMINATIV QO‘SHMA SO‘ZLAR (“بلند+OT” VA  
“کوتاه+OT” MODELLARI ASOSIDA)**

**Begaliyeva Xadicha Dilmurod qizi**

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*

*Lingvistika (fors)1-kurs magistranti*

*g-mail: [begaliyevahadica@gmail.com](mailto:begaliyevahadica@gmail.com)*

*Ilmiy rahbar: PhD, dotsent Nodir Nuriddinov*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola fors tilida determinativ qo‘shma so‘zlar haqida ma’lumot berish va “بلند+ot” va “کوتاه+ot” modellari asosida yasalgan determinativ qo‘shma so‘zlarni o‘rganishga bag‘ishlangan.

**Kalit so‘zlar:** determinativ qo‘shma so‘zlar, sifat, ot, yangi so‘zlar.

**KIRISH**

Turli tillardagi qo‘shma so‘zlarning xususiyatlari haqida ko‘plab asarlar yozilgan hamda dunyo olimlarining qo‘shma so‘zlar, xususan, determinativ qo‘shma so‘zlar yasalishi va uning o‘rganilganlik, aniqlik darajasi haqida ma’lum bir to‘xtamga kelinmagan. Shunday bo‘lsa-da, turli olimlar tomonidan qo‘shma so‘zlar bo‘yicha bir qancha izlanishlar olib borilgan va ulardan turli xil ta’riflar taqdim etilgan. Quyida bir qancha olimlarning nazariy qarashlarini ko‘rishimiz mumkin:

“Qo‘shma so‘z – ikki yoki undan ortiq o‘zak (negiz)lar yoki leksik (noaffiksal) morfemalarning birikuvidan iborat yoki so‘z birikmalarining leksikalizatsiyasi natijasida hosil bo‘lgan murakkab birlik (kompozit)”.

Mustaqil leksik ma’no ifodalay oladigan birdan ortiq leksemani qo‘shish bilan so‘z yasalishi kompozitsiya usuli bilan so‘z yasalishi deyiladi .

Eron tilshunosligida ham kompozitsiya jarayoni bir xil baholanmaydi. Bir guruh olimlar qo‘shma so‘zni uning yaxlitligidan kelib chiqib tadqiq etsalar, boshqalari esa bu holatni e’tibordan chetda qoldirib, qo‘shma so‘z komponentlarining morfologik tarkibini tavsiflash bilangina cheklanadilar .

Ma’lumki, determinativ qo‘shma so‘zlar kompozitsiya usuli orqali yasaluvchi qo‘shma so‘zlardir. Determinativ qo‘shma so‘zlar o‘z tarkibidagi komponentlarining o‘zaro munosabatiga ko‘ra hokim va tobe so‘z orqali bog‘lanuvchi so‘z birikmalarini eslatadi. Bu kabi qo‘shma so‘zlarda bir komponent boshqa bir komponent ma’nosini aniqlashtiruvchi bo‘lib, ular o‘zaro birgalikda yagona tugal ma’noni anglatib keladi .

Fors tilida mahsuldor va keng tarqalgan qo‘shma so‘zlar haqidagi tasavvurlar aniqdek tuyulsa-da, lekin so‘z yasalishining bu bo‘limi ko‘plab lingvistik bahslar va nazariy tadqiqotlarga asos bo‘lib kelmoqda. Qo‘shma so‘zlarni aniqlash va ularni o‘rganishda tadqiqotchilar turli mezonlarga asoslanadilar. Ba’zilar qo‘shma so‘zlarga faqat shakl nuqtayi nazaridan yondoshsalar, boshqalar esa semantik va funksional belgilariga ko‘ra tadqiq etadilar. Eron tilshunosligida qo‘shma so‘z yasalish jarayoni bir xil baholanmaydi.

Determinativ qo‘shma so‘zlarda bir komponent ikkinchisining ma’nosiga aniqlik kiritib tobe so‘z sifatida keladi. Masalan: صاحب خانه *sāhebxāne* “uy egasi”, خورده مالک *xordemālek* “kichik tadbirkor” kabi. Tadqiqot ishida xuddi shu usulda yasalgan qo‘shma so‘zlarning بلند+ot “کوتاه+ot” modeli ko‘rib chiqiladi. Qo‘shma so‘zlarni tadqiq etish jarayonida fors tilida aynan shu model asosida bir qator yangi determinativ qo‘shma so‘zlar yasalishi ma’lum bo‘ldi.

O‘zbek tilida hajm-o‘lchovni ifodalovchi sifatlar *keng*, *tor*, *uzun*, *qisqa*, *katta*, *kichik*, *og‘ir*, *yengil*, *baland* va *past* degan so‘zlarni o‘z ichiga oladi. Fors tilida bu sifatlar *derāz* “keng”, باریک *bārik* “tor”, بلند *boland* “uzun”, کوتاه *kutāh* “qisqa, kalta”, بزرگ *bozorg* “katta”, کوچک *kuček* “kichik, kichkina”, وزین *vazin* “og‘ir”, سبک وزن *sabokvazn* “yengil”, بلند *boland* “baland” va پایین *pāyin* “past” deyiladi. Quyida بلند *boland* “baland”, کوتاه *kutāh* “kalta” sifatlariga ot so‘z turkumidagi so‘zlar qo‘shilishi natijasida hosil bo‘lgan determinativ qo‘shma so‘zlarni ko‘rib chiqamiz:

**“بلند+ot” modeli asosida yasalgan determinativ qo‘shma so‘zlar:**

بلنداقبال *bolandaxtar* “baxtli”, “omadli”; بلندارکان *bolandarkān* “mansabli”; بلندایقی *bolandeybāl* “iqbolli”, “ulug‘vor”; بلندافسر *bolandafsar* “sohibqiron”, “tojdor”; بلندبانگ *bolandāvāz* “baland ovozli”; بلندبخت *bolandbaxt* “baxtli”, “omadli”; بلندآواز *bolandbāng* “baland ovozli”; بلندپرواز *bolandparvāz* “balandparvoz”, “manman”, “o‘zini katta tutuvchi”, “kekkaygan”; بلندپایه *bolandpāye* “mansabli”, بلندقامت=بلندقد *bolandsāye* “homiylik qiluvchi”, “himoyachi”; بلندسایه *bolandyāmat=bolandyad* “bo‘ychan”, “novcha”; بلندکوکب *bolandkaukab* “iqbolli”, “baxtli”; بلندمرتبه=بلندمکان *bolandmartabe=bolandmakān* “mas’ul”, “javobgar”; بلندنام *bolandnām* “dongdor”, “mashhur”, بلندنظر *bolandnazar* “mulohazali”, “uzoqni ko‘ra biladigan”; بلندهمت *bolandhemmat* 1) “oliyimmat”, “muruvvatli”; 2) “irodali”, “kuchli”; بلندنوا *bolandnavā* “ovozi baland”; بلندطبع *bolandtab* ‘himmatli”, “hotamtoy”, “saxiy”.

Endi بلند *boland* “baland”, “yuqori” ma’nosini beruvchi sifat so‘z turkumiga mansub bilan yasalgan determinativ qo‘shma so‘zlar qatnashgan jumlalardan namunalar ko‘rib chiqamiz:

گه بلندى سى زمانى پستى، هر كىس اى دوست بلنداختىر نىست *Gah bolandist zamoni pasti, har kas ey dust bolandaxtar nist* “Gohida pastlik zamoni ustundir, har kim ham, ey do‘st, baxtli emas” [3:1017].

اختر Bu jumlada بلند *boland* “baland”, “yuqori” ma’nosini beruvchi so‘z bilan *axtar* “yulduz” so‘zi birikib “baxtli”, “omadli” ma’nosida kelgan.

كى كاوس آدمى ناصبور و ناشكر و بلندپرواز است كە تا بە هر مرتبە مى رسد، باز ميل مراتب *Keykāvus ādami-ye nāsabur-o nāšokr-o bolandparvāz ast-ke tā be har martabe mi-rasad, bāz meyl-e marāteb-e bālātar-rā mi-konad* “Kaykovus qancha baland martabaga erishgani sari yana ham balandrog‘ini xohlaydigan noshukr, besabr va manman odam” [3:1017].

Yuqoridagi gapda esa بلند *boland* “baland”, “yuqori” va *parvāz* چۈچىسى *uchadigan*, “uchuvchi” so‘zleri birikuvidan salbiy ma’noga ega determinativ qo‘shma so‘z yasalgan.

Şe’r-e fārsi شعر فارسى برای ما، مكتب سرافرازی و بلندطبعى و آقایی و بى نیازى...بود *barāye mā, maktab-e sarafrāzi va bolandtab’i va āyāyi va biniyāzi...bud* “Forsiy she’r biz uchun g‘urur, oliyimmatlik, ulug‘vorlik va bemuhtojlik ... edi” [3:1018].

Keltirilgan jumlada بلند *boland* “baland”, “yuqori” va tab’ طبع “did, tabiat” so‘zi birikib, “oliyimmat”, “saxiy” ma’nosini bildirmoqda.

مرد بلندهمت باید برای وصول به مقصود، همیشه تقاضاي خود را بر يك مقدار قابلیت و توانایي كە Mard-e bolandhemmat bāyad barāye vosul be maysud, hamīše tayāzā-ye xod-rā bar yek meydār yābeliyyat va tavānāyi-ke nadārad, banā

*begozārad* “Ozgina bo‘lsa ham qobiliyat va iste’dodga ega bo‘lmagan **irodali** inson o‘z maqsadiga erishish uchun doimo harakat qilishi kerak” [3:1018].

Ushbu jumlada *bolandhemmat* so‘zi “irodali”, “kuchli” ma’nosida kelmoqda.

### “**котаҳ+от**” модели асосида ўзлаган determinativ qo‘shma so‘zlar

котаҳ *kutāhāstin* “yo‘qsil”, “faqir”; котаҳ *kutāhalyāf* “qisqa tolali”; котаҳ *asṭin* *kutāhāmat*, *kutāhyad* “kalta bo‘yli”; котаҳ *qāmat* *kutāhpā* 1) “kalta oyoqli”, “kalta bo‘yli”, 2) “quyon”; котаҳ *prowaz* *kutāhparvāz* “qisqa masofaga uchish”; котаҳ *harf* *kutāhharf* “kamgap”; котаҳ *dast* *kutāhdast* 1) “qo‘li kalta”, 2) “vazmin”, “mo‘tadil” 3) “itoatkor”, “yuvosh”; котаҳ *shāx* *kutāhshāx* “shoxsiz”, “to‘qol”; котаҳ *fikr* *kutāhfekr* “kalta fikrlaydigan”; котаҳ *muddatli* *kutāhmoddat* “qisqa metrajli”, “qisqa muddatli”; котаҳ *zohid* *kutāhnazar* “kaltabin”; котаҳ *nafs* *kutāhnafas* “hansiragan”, “qisqa-qisqa nafas oladigan”; котаҳ *umr* *kutāhomr* “qisqa umr”.

Quyida котаҳ *kutāh* “qisqa” sifati bilan ўзлаган determinativ qo‘shma so‘zlar ishtirok etgan jumlalarga diqqat qilamiz:

هر کе از ایشان عالم و زاهد و **کوتاھ دست** باشد، او را بر آن کار نگاه دارند *Har-ke az išān ālem va zāhed va **kutāhdast** bāšad, u-rā bar ān kār negāh dārand* “Kim ulardan olim, zohid va **qo‘li kalta** bo‘lsa, uni o‘sha ishda ushlab turadilar” [3:5980].

گویند مرد **کوتاھ قد** و حقیر جهه بود، از این سبب او را وطوات می گفتند *Guyand mard-e kutāhyad* va hayirjosse bud, az in sabab u-rā vatvāt mi-goftand “Aytishlaricha, u **past bo‘yli**, kichik jussali odam edi, shuning uchun uni ko‘rshapalak deyishardi” [3:5981].

Мардман **котаҳ Нظر** و حمقای تنبیل، مسخرگی و هرزگی را نرдбан توқи و موғқиёт تشخیص мی دهنд *Mardomān-e **kutāhnazar** va hamyā-ye tambal, masxaregi va harezgi-rā nardbān-e tavayyi va movaffayiyat taşxis mi-dehand* “**Uzoqni ko‘ra olmaydigan**” va kaltabin odamlar masxara qilish va axloqsizlikni muvaffaqiyat zinapoyasi deb bilishadi” [3:5981].

### XULOSA

1. Fors tilida determinativ qo‘shma so‘zlar o‘zida tobe va hokim munosabatini ifodalab, bir bo‘lakning ikkinchisini aniqlab kelishi natijasida hosil bo‘lishi va birgalikda muayyan so‘z turkumiga oid yangi fikrni ifodalash uchun xizmat qilishi isbotlandi.

2. Tadqiqot mavzusiga doir to‘plangan misollar tahlilida determinativ qo‘shma so‘zlar yasalishida sifat so‘z turkumlari ham salmoqli o‘rin egallashi va nafaqat badiiy, balki so‘zlashuv uslubida ham keng qo‘llanilishi o‘z tasdig‘ini topdi.

3. Mazkur izlanishda “**блн+от**” модели асосида jami 19 ta hamda “**котаҳ+от**” модели асосида 14 ta, umumiyy hisobda **33 ta** determinativ qo‘shma so‘z o‘rganib chiqildi va jumlalar orqali misollar keltirildi. Ularning ayrimlari jahon lingvist

olimlarining tadqiqotlarida turli jihatdan guruhlarga ajratilgan, shunday bo‘lsa-da ularning determinativ qo‘shma so‘z ekanligiga e’tirozlar kuzatilmadi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Рубинчик Ю. А. Грамматика современного литературного персидского языка. – М., 2001.
2. Персидско-русский словарь: В 2-х томах под ред. Ю.А.Рубинчика. – М.: Русский язык, 1985. – 800 с., 848 с.
3. Anvari H. Farhang-e bozorg-e soxan. Tehron, 1381.
4. Чавчавадзе Т. А. Именное словосложение в новоперсидском языке. – Тбилиси: Мецниереба, 1981. – Б. 16-30.
5. Ҳожиев А. Ўзбек тили сўз ясалиши. – Тошкент:Ўқитувчи, 1989. – Б. 30.
6. Nuriddinov, N., & Nizamova, F. (2022). Theoretical views of Iranian linguists on the classification of word-combinations. In *ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В СОВРЕМЕННОЙ НАУКЕ* (pp. 86-90).
7. NURIDDINOV, N., & AKMALOV, S. (2022). THE ROLE OF IRANIAN ACADEMIES OF LANGUAGE AND LITERATURE IN THE DEVELOPMENT OF PERSIAN LEXICON. *THEORETICAL & APPLIED SCIENCE* Учредители: Теоретическая и прикладная наука, (6), 140-143.
8. Нуридинов Н.Н. Форс тилида копулятив қўшма сўз ва эркин копулятив сўз бирикмаларининг дистинктив белгилари Монография. – Т, 2020.
9. Алимова Х.З. Вопросы классификации сложных слов в иранском языкоznании // Восточные языки и культуры: Материалы III Международной научной конференции. – Москва, 2010
10. Киселева Л.Н. Очерки по лексикологии языка дари. – М.: Наука, 1973. – С. 112; Язык дари Афганистана. – М.: Наука, 1985.
11. Ганиев А.Г. Очерки по глагольной фразеологии литературного пушту. – Т, 1985.
12. Л. С. Пейсиков Очерки по словообразованию персидского языка. – М. 1973.
13. Ўзбек тили грамматикаси. Морфология. – Т.: Фан, 1975. Т.1.